



UO'K: 101.1

**AXLOQIY TARBIYADA MILLIY QAHRAMONLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING  
IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI****СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА  
НАЦИОНАЛЬНОГО ГЕРОИЗМА В НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ****SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE FORMATION OF A SENSE OF  
NATIONAL HEROISM IN MORAL EDUCATION****Madaminov Baxromjon Mansurjonovich** 

Farg'ona davlat universiteti sirtqi bo'lim dekan o'rinbosari

**Annotatsiya**

Maqolada yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning nazariy-metodologik asoslari, yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning tarixiy-falsafiy jihatlarini, yoshlarni axloqiy tarbiyalashda milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning istiqboldagi ustuvor vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, axloqiy tarbiyada milliy qahramonlik tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlil qilingan.

**Аннотация**

В статье рассмотрены теоретико-методологические основы усиления чувства национального героизма узбекского народа в нравственном воспитании молодежи, историко-философские аспекты усиления чувства национального героизма узбекского народа в нравственном воспитании молодежи. Изучаются приоритетные задачи укрепления чувства национального героизма в нравственном воспитании молодежи в будущем. Также анализируются социально-философские аспекты формирования чувства национального героизма в нравственном воспитании.

**Abstract**

The article studies the theoretical and methodological foundations of strengthening the sense of national heroism of the Uzbek people in the moral education of young people, the historical and philosophical aspects, and the priority future tasks. It also analyzes the socio-philosophical aspects of forming the sense of national heroism in moral education.

**Kalit so'zlar:** axloqiy tarbiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy qonuniyatlar, an'anaviylik va zamonaviylik, qiyosiy tahlil, milliy qahramonlik, falsafiy mexanizm, vatanparvarlik.

**Ключевые слова:** нравственное воспитание, национальные и общечеловеческие ценности, социальные закономерности, традиционализм и современность, сравнительный анализ, национальный героизм, философский механизм, патриотизм.

**Key words:** moral education, national and universal values, social regularities, traditionalism and modernity, comparative analysis, national heroism, philosophical mechanism, patriotism.

**KIRISH**

Qahramonlikning falsafiy mazmunini umumiylik va yakkalik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tashkil etadi. Jumladan, shaxsiy darajadagi qahramonlik insonning ma'naviy dunyoqarashida, ezgu maqsadlarida, axloqiy intilishlarida muhim va barqaror xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Makrodarajadagi qahramonlik esa ijtimoiy tafakkurning jamoaviy kayfiyatlarida, hissiyotlarda, o'z xalqiga nisbatan munosabatda, hayot tarzida, muhim qadriyatlar tizimida, boshqa xalqlar, ularning tili, tarixi, madaniyatiga bo'lgan hurmatda namoyon bo'luvchi qismini ifodalaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tarixiy va axloqiy qadriyatlarning yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ta'siri muammolari R.Mixner, S.Kautz, J.Sitser, Fernand Grenand, Frederik Starr, Eyji Mano, Magida Mahluf, Mark Bonnel, Yul Yanssens, Masataka Takeshita, P.Petrov, S.I.Tyulyaev, S.P.Tolstov, K.Pirliiev, R.R.Safin, I.F.Xarlamov, B.To'ychiev, I.Inoyatov, M.Abilov, V.Kaloshin, O.Abdurasulov, A.Sa'diev, E.Safaeva, N.Remeev, Ya.G'affarov, T.Toshpo'latov, S.Mahkamov R.A.Mulladjonova, O.Musurmonova, N.Ortiqov, B.Xodjaev, Q.SHonazarov, H.Boltaboev, G.Zaripova, N.Komilov, U.Mansur, U.Mahkamov, S.Nishonova, N.Ortiqov, O.Musurmonova, K.Qilichevalar tomonidan tadqiq etilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shotland faylasufi T.Karleyl yozganidek, insoniyat tarixi yirik shaxslar, qahramonlar, vatanparvarlar tarixidir. Shunday fuqarolari bor xalq kelajagiga, taraqqiyotiga tik qaraydi. Ha, shunday fuqarolari, vatanparvarlari bor xalq, millat o'zida yaratishga kuch, quvvat va dalillik borligiga ishonadi. Shuning uchun ham qahramonlar xalq, millat tarixida ko'p tilga olinadi, u avlodlarga ibrat, namuna qilib ko'rsatiladi. Qahramonlikning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari to'g'risida ko'plab asarlar yozilgan. «Tarix fanining otasi» Gerodotdan tortib Fukidid, Plutarx, Kurtsiy Ruf, Ibn Xaldun, Narshaxiy, as-Samarqandiy, Arnold Toynbi, Albert Manfred, Nikolay Karamzin, Lev Gumilyovgacha qahramonlik fenomeni bilan bog'liq davrlarni, mavzularni alohida o'rganishgan.

Xalq og'zaki ijodi asosan qahramonlik mavzusini o'z ichiga oladi. Gilgamish, Odissey, Alpomish, Go'ro'g'li, Kuntug'mish, Tohir va Zuhra, Farhod va SHirin, hatto Afandi hamda Aldarko'sa kabi obrazlar ham ana shu mavzu negizida yaratilgan. Qahramonlarini, olijanob fazilatlariga ega vatanparvarlarini, elparvarlarini kuylash har bir xalqning, millatning qadriyatidir. Biz qahramonlarini anglab xalq, millat hayotini anglaymiz. Qahramonlik – axloqiy voqelik. U inson qalbi, ruhi, ma'naviyati, ideali bilan bog'liq fenomen. U oddiy hodisa emas, u xalq, millat olijanob fazilatlarining shaxs ma'naviy hayoti va xatti-harakatlarida yig'ma ifodasi, jamlanishidir.

Qahramonlikni alohida voqelik, fenomen sifatida o'rganganda:

- shaxs va jamiyat ideali;
- ijtimoiy taraqqiyot talablari;
- ijtimoiy-tarbiyaviy maqsad;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar ta'siri

kabi omillarga alohida e'tibor beriladi.

Shaxs va jamiyat ideali strategik maqsadlar bilan birga tarixiy-madaniy merosdan olingan tasavvurlardan iborat. Bunday ideal jamiyat taraqqiyoti va tarixiy-madaniy tajriba uyg'unlashuvi asosida shakllanadi. Maxsus tadqiqotlar ko'rsatadiki, kishilar idealni ko'pincha o'tmishdan, tarixiy-madaniy tajribadan izlashga moyildirlar. Falsafa fanlari doktori, professor S.A'zamxodjayevaning yozishicha, ideal subyektiv voqelik, orzu, tilak va baxtli kelajakka oid tasavvurlar ifodasi sifatida o'tmishdagi voqelikni kelajakka proektsiya qilish kuchiga ega. Proektsiya esa mavjud tajribani kelajakka tatbiq etish, o'tkazishdir.

Idealda ham, qahramonlikda ham shaxs ni olijanob maqsadlar bilan yashashga da'vat bor. Bu da'vat el, yurt, vatan, taraqqiyot manfaatlari bilan yashashni nazarda tutadi. Qahramonlik, u ergashadigan ideal shaxsiy manfaatlarni ijtimoiy manfaatlar bilan uyg'unlashtirishni, zarur bo'lganida shaxsiy niyatdan voz kechishni taqozo etadi. Qahramonlikda mudom vatanga oid nimadir bor bo'ladi, vatanparvarlik va elparvarlik tuyg'usiz qahramonlik yo'q. Quduqqa tushib ketgan mushukni yoki qo'zichoqni qutqarish uchun o'zini quduqqa tashlagan kishini biz qahramon atamaymiz, ammo ushbu harakat inson, go'dak hayotini qutqarishga qaratilsa, uni biz qahramonlik ataymiz. Demak, qahramonlik inson, el, vatan uchun fidoyilikdir.

Vatanparvarlik faqat chegarada turib dushman yo'lini to'sish emas, u vatan ravnaqi uchun sun'iy to'siqlarni bartaraf etish, davlat ramzlarini tarannum etish, vatan tabiatini kuylash, maqsadlariga xizmat qilish, mehnati bilan vatan sharafiga sharaf qo'shishdir. Tinch, ammo fidokorona mehnat, xokisorlik bilan vatanparvarlikka oid qadriyatlarni e'zozlash, egoistik mayllardan kechib, xalq, millat farovonligiga xizmat qilishdir. Bu yerda ideal xalq, millat farovon yashashini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Demak, ideal obyektivlashishi, ya'ni real xatti-harakatlarda namoyon bo'lishi darkor. Ijtimoiy taraqqiyot talablariga muvofiq kelgan qahramonlik ijobiy xususiyatga ega. To'g'ri, bu o'rinda qahramonlikka subyektiv, tayyor tasavvurlar nuqtai nazaridan yondashish ham mavjud. Bunday yondashuv keng qahramonlik fenomenini tor qarashlar, sxema doirasida baholashni keltirib chiqaradi. Masalan, Sobir Rahimov va o'n to'rt yetim bolani tarbiyalagan SHomahmudovlar haykallarini Toshkentdagi maydonlardan olishga oid qaror avtokratik boshqaruv hukm surgan davrdagi qahramonlik haqidagi umuminsoniy tasavvurlarni tor, mafkuraviy sxemaga solish edi. Hozir ular o'z o'rniga qaytarildi. Jamiyat hayotida, kishilar ongida qahramonlik fenomeni sifatida shakllangan qadriyatga salbiy munosabat kishilarda ijtimoiy taraqqiyot haqida noto'g'ri, noobyektiv fikrlarni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy taraqqiyotning o'z qonunlari bor. Bu qonunlar inson xatti-harakatlarining mezonini hisoblanadi. Ularga egoistik maqsadlardan voz kechish, o'z hayoti va amallarini ijtimoiy tartiblarga, qonunlarga qarshi qo'yimaslik, etnomadaniy omillardan kelib chiqish, ijtimoiy foydali mehnatda

## FALSAFA

qatnashish kabilar kiradi. SHunday ekan, qahramonlik ana shu qonunlarga muvofiq kelganida vatanparvarlik tuyg'usiga aylanadi. Ijtimoiy-tarbiyaviy maqsadni taraqqiyot qonunlari shakllantiradi. U o'zidan o'zi, mexanik tarzda, davlat, jamiyat va taraqqiyot talablaridan tashqarida shakllanmaydi. Ijtimoiy hayotdagi mavjud qadriyatlar, qonunlar ayniqsa, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi tarzidagi modellari tarbiyaga alohida maqsad qo'yadi. Bu maqsad strategik va taktik xususiyatga ega. Strategik xususiyatli maqsadga insondagi umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan ta'lim, tarbiya, targ'ibot ishlari kiradi. Ular insonda gumanizm, hayotsevarlik, olijanob fazilatlarni shakllantirish bilan bog'liq. Hayotsevarlik, «hayotni asrash» insonni tarbiyalashning azaliy vazifasi sifatida keladi<sup>6</sup>. Ijtimoiy tarbiyaviy maqsad qahramonlik fenomenini ana shu azaliy vazifaga yo'naltiradi. Taktik xususiyatli tarbiya bugun, yaqin yillarda jamiyat oldida turgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Masalan, hozir O'zbekiston 2030 yillarga borib jahondagi ilg'or, rivojlangan 50 davlat qatoriga kirishi uchun innovatsion rivojlanishga intilmoqda. Bugun ijtimoiy tarbiya oldiga innovatsion tafakkurli shaxslarni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yimoqda. Biroq bu vazifa davr o'tishi bilan boshqa vazifaga almashadi. Bu ijtimoiy hayot, taraqqiyot qonuni, talabidir.

Strategik xususiyatli ijtimoiy tarbiya ham, taktik xususiyatli ijtimoiy tarbiya ham qahramonlik fenomenidagi olijanoblik, altruizm, vatanparvarlik va elparvarlikni rad etmaydi, ammo unga, o'z xususiyati va talablaridan kelib chiqib, aniq vazifa qo'yadi. SHu vazifani samarali, a'lo bajargan kishini, shaxsni «qahramon», «zamonamiz qahramoni» ataydi. Qahramonlikda fidoyilik, alturizm, hatto o'zidan kechish mavjud. SHuning uchun u oddiy faoliyat yoki mehnatdan farq qiladi. Agar «O'zbekiston qahramoni» sharaflini unvoniga ega kishilar hayotini o'rgansak, ularda o'z kasbiga chuqur muhabbat borligini ko'ramiz. Bu muhabbat el-yurt, vatan ravnaqiga qaratilgani uchun alturistik xususiyat kasb etadi. Ya'ni O'zbekiston qahramonlari butun faoliyatini vatani manfaatlariga baxsh etgan fidoyilardir.

**XULOSA**

Qahramonlik, albatta, rasmiy e'tirof etilishi shart bo'lgan fenomen emas. Masalan, koronavirus paytida el-yurt sog'lig'i uchun o'z sog'lig'ini, hayotini xavf ostiga qo'yib jonbozlik ko'rsatgan tibbiyot xodimlari haqiqiy qahramonlardir. Ammo ularning hammasi ham rasmiy e'tirof etilgan qahramonlar emas. Demak, hayotda rasmiy e'tirof etilmagan, tan olinmagan qahramonlar ham bor. Eng muhimi ularning faoliyati, xatti-harakatlari fidoyilikka, alturizmga, el-yurt, vatan manfaatlariga qurilganidadir. Qahramonlik fazilatlariga ega bo'lmay vatanparvar bo'lish qiyin; vatanparvar mudom qahramon yoki qahramonlik fazilatlariga ega shaxsdir. Hayotda qahramon, vatanparvar bo'lish uchun mudom imkon bor. Inson qalbida, ruhida ijtimoiy adolatga, vatanga, millatga mehr bor ekan, u qahramonona yashashga asos topa oladi. Bugun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangilanishlar ham har birimizni qahramonlik ko'rsatib yashashga undaydi, bu ijtimoiy-tarixiy imkon bizni chin vatanparvarga aylantirayotgani bilan e'tiborlidir. Vatan – muqaddas, vatanparvarlik esa yanada muqaddasdir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Замилова Р. Герои и героическое: этикофилософский анализ. 2.с. 12-14 — Тошкент: Noshir, 2013.
2. Белов Г. История философия науки. —Москва: Издательский дом МГУ, 2012. —432 с
3. Вебер М. Наука как призвание и профессия // М. Вебер. Избранные произведения. - М.: Прогресс, 1990. — 456 с
4. Жабборов И. Юсак маданият ва ноёб маънавият маскани. —Тошкент: O'zbekiston, 2012. - 316 б
5. Кант И. Сочинения в 6 т. Т. 5. М., Мысль, 1966. С.314.
6. Карлейл Т., Герои почитание героев и героическое в истироии. — Москва: Эксмо, 2008.
7. Многоликая глобализация. Культурное разнообразие в современном мире. Под.ред. П. Бергера, С.Хантингтона. —М.: Аспект-Пресс, 2004. —С. 123.
8. Ҳайдаров Х. Ислохотлар қонунияти. — Тошкент: Ўзбекистон, 2011.